

MEDIASAVODXONLIKNI OSHIRISH USULLARI

Otabek Usmonov

O'zDJTU, Xalqaro jurnalistika fakulteti talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada mediasavodxonlikni oshirish, faktlarni tahlil qilish va axborotlarni saralash uchun zarur bo'lgan usullar milliy va xorijiy adabiyotlar misolida tahlil qilinadi. Shuningdek, mazkur maqola mavzusi yuzasidan tegishli ilmiy va rasmiy adabiyotlardagi fikrlar umumlashtirilib, mavjud muammo yuzasidan taklif hamda tavsiyalar keltiriladi.

Kalit so'zlar: *mediasavodxonlik, OAV, axborot, faktcheking.*

Abstract. In this article, methods necessary for increasing media literacy, analyzing facts and sorting information are analyzed on the example of national and foreign literature. Also, the opinions of the relevant scientific and official literature on the subject of this article are summarized, and suggestions and recommendations are made on the existing problem.

Key words: *media literacy, mass media. information, factcheck.*

KIRISH

Zamonaviy texnologiyalar va internetning rivojlanishi axborot oqimining harakatlanishi va tarqalishini yanada tezlashtirdi. Ayniqsa mamlakatimizda so'ngi yillarda internetning rivojlanishi tufayli axborot oqimining harakati misli ko'rilmagan darajada tezlashdi. Har soniyada millionlab axborot va yangiliklar dunyoning bir burchagidan narigi burchagiga qarab harakatlanadi. Axborotlarni yetkazib berishda tezkorlik va zamonaviy usullardan foydalanish yaxshi albatta, ammo ushbu axborotlar ichida bir qator tekshirilmagan, yolg'on axborotlarning borligi ham hech birimizga sir emas.

Ijtimoiy tarmoqlar va messenjerlar orqali axborot uzatish jarayonida mana shu kabi holatlar tez-tez uchrab turadi. O'zingiz ham bu kabi holatlarga duch kelganingiz tabiiy hol. Aynan shu holatda foydalanuvchilarda axborotni tog'ri tahlil qilish, faktlarni aniqlay olish, umuman olganda mediasavodxonlik ko'nikmasiga ega bo'lishi lozim. Sababi ayni kunda tarmoqda yolg'on axborot tarqatish orqali turli ko'ngilsiz holatlar keltirib chiqarishni maqsad qilgan ayrim guruhlar mavjudligi sir emas. Shu o'rinda mediasavodxonlik tushunchasiga izoh berib o'tsak.

Mediasavodxonlik tushunchasi borasida turli xil fikrlar mavjud bo'lib, AQShning Jamiyat xususidagi xalqaro ensiklopediyasida qayd etilishicha, «Mediasavodxonlik» (media literacy) inson o'zini jamiyatdagi fuqaro sifatidagi mas'uliyatini his qilgan holda faol va savodli bo'lishi, mediamatnlarni qabul qila olishi, yaratishi, tahlil eta olishi va baholashi, zamonaviy mediani ijtimoiy-madaniy va siyosiy mazmunini tushuna olishi demakdir[1].

Londoning Qirollik universiteti professori S.Fayrstounning fikriga ko'ra esa, mediasavodxonlik harakat bo'lib, uning asosiy vazifasi insonlarni audiovizual va bosma matnlarning madaniy ahamiyatini tushunish, yaratish va baholashga undashdan iborat[2].

Ingliz siyosatshunosi R.Kibey esa mediasavodxonlikni turli xil shakllarda ma'lumotlarni uzatish, ularni tahlil etish va baholash deb, ta'rifladi. M.Guetterz esa multimediasavodxonlik o'z ichiga multimedia hujjatlarini shakllantirishga qaratilgan tillarni bilish, axborotni qayta ishlashga qaratilgan qurilma va usullardan foydalana olish, yangi multimedia texnologiyalarini bilish va ularni baholay olish, mediamatnlarni tanqidiy qabul qilishni oladi, deb ta'rif beradi[3]. “Mediasavodxonlik - bu ommaviy axborot vositalari orqali uzatiladigan belgilarni kodlash va dekodlash qobiliyati hamda vositachi xabarlarini sintez qilish, tahlil qilish va ishlab chiqarishni o'rganish[4]” hisoblanadi. Bugungi kunda mediasavodxonlik Buyuk Britaniya va Avstraliyada gumanitar fanlar majmuasida alohida fan sifatida o'tiladi. Finlyandiyada esa 1970-yildan o'rta maktablarning, 1977-yildan esa oliy o'quv yurtlarning o'quv dasturlariga kiritilgan edi. 1990-yillarda esa mamlakatda mediasavodxonlik, mediata'lim tushunchasi bilan almashtirildi. Shvetsiyada u 1980-yildan boshlab ta'lim muassasalarida alohida fan sifatida o'qitila boshlangan. 1990-yillarada Rossiyada media ta'limni ilmiy tadqiq etishga urinishlar bo'lib O.Baranov, S.Penzin, A.Fyodorov, A.Sharikov va boshqalarning tadqiqotlari bunga misol bo'la oladi. 2002 yili pedagogika oliy ta'lim yurtlari uchun mediata'lim ixtisosligi bo'yicha yo'nalish ochildi. 2005-yili esa YUNESKO homiyligida “Mediata'lim” darsligi yaratildi va Rossiyada kino ta'lim va media pedagogika sayti ishga tushirildi[4]. OAV orqali tarqatilayotgan axborotning manipulyativ ta'siri kuchliligini bugun hech kim inkor eta olmaydi.

Mediasavodxonlikni oshirish uchun bir qator usullar taklif etiladi. Ayniqsa xorijiy mamlakatlarda bu tendensiyani shakllantirish uchun alohida treninglar o'tiladi. Axborotlarni tahlil qilish uchun zarur bo'lgan ko'nikmalar berib boriladi. Xususan, ularda mediasavodxonlikni oshirish uchun ilg'or mediakompetensiya talab

etiladi. Bu orqali axborot foydalanuvchilariga yo‘lg‘on axborotlarga qarshi kurash bo‘yicha usullar o‘qitiladi[5].

1. Axborot va axborot manbalarini tanqidiy baholash kompetensiyasi.

Bu usul orqali foydalanuvchi manbalarni tahlil qiladi, faktlarni jamlaydi va axborotning haqqoniyligini tekshiradi. Shuningdek, ongli ravishda tahlil qobiliyatini kuchaytirish, axborotlarga tanqidiy munosabatda bo‘lish va doimiy ravishda ma‘lumot manbasini aniqlash kabi ko‘nikmalarga ega bo‘ladi.

2. Tanqidiy fikrlash yordamida tahlil qilish va baholash.

Ushbu ko‘nikmani shakllantirish uchun foydalanuvchilar ma‘lumotni baholay olishi shuningdek, bir qator abstrakt bo‘lgan savollarni o‘rtaga tashlashi kerak bo‘ladi. Ular:

- Axborotning muallifi kim?
- Axborotni tarqatishdan uning maqsadi nima? (xabar berish, ko‘ngil ochish, ishontirish);
- Auditoriyadagi insonlar bu xabarni qanday talqin qilishlari mumkin yoxud qilishdi?
- Voqeaning yo hodisaning tafsilotlari qoldirganmi? (Yo‘q bo‘lsa nima sababdan?)
- Shuningdek, manbalar keltirilganmi? Grammatik yoki imlo xatolari bormi? kabi savollar bo‘lib foydalanuvchi ushbu savollarga javob topishi kerak.

Ommaviy axborot vositalari yoki kanallar orqali e‘lon qilinayotgan axborotlarning yolg‘on yoki haqqoniyligini tekshirish uchun bir qancha tavsiyalar mavjud.

1. Ijtimoiy tarmoqda foydalanuvchining sahifasi qachon ochilganligini tekshiring.
2. Foydalanuvchining faolligini o‘rganish zarur.
3. Foydalanuvchining boshqa ijtimoiy tarmoqdagi sahifalarini izlash kerak.
4. Yangiliklarni yuklab olgan, nashr qilgan inson bilan bog‘lanib ko‘rish kerak.
5. Axborotni joylashtirgan inson qayerda yashashi haqidagi ma‘lumotlarni solishtiring.
6. Tasvir bo‘yicha qayta qidiruvdan foydalanish tavsiya etiladi.

Bugun axborotni chegaralash yoxud taqiqlash orqali hech qanday natijaga erishib bo‘lmaydi. Sababi foydalanuvchi qanday yo‘l bilan bo‘lmasin unga egalik qilishga

harakat qiladi. Yolg'on axborotlar sababli oilalarning ajralib ketishi, siyosiy nizolar kelib chiqishi mumkin. OAVda yoxud internet orqali tarqatilayotgan qaysidir film qahramoniga taqlid qilish orqali qanchadan-qancha bolalar salomatligidan va og'ir holatlarga kelishi mumkinligini tasavvur qiling. Yoxud, yolg'on axborotlar tarqatish shuningdek, axborot orqali insonlarning shaxsiy chegaralarini buzish, ularni turli ommaviy harakatlarga chorlash, ekstremistik harakatlar va guruhlariga da'vat etish kabi holatlar kuzatilishi mumkin. Shu sababli mediasavodxonlikga ega bo'lish talab etiladi.

Xulosa o'rnida ta'kidlash joizki, media savodxonlik — bu tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini ommaviy axborot vositalari orqali uzatiladigan xabarlar va belgilarga qo'llash qobiliyati hisoblanadi. Mediasavodxonlikni oshirish orqali bir qator kiberjinoyatlar va huquqbuzarliklarni oldini olish mumkin. Iste'molchi sifatida axborotdan foydalanayotganda siz ayni damda o'qigan axborotni sizga o'xshagan insonlar tarqatayotganini va u tasdig'ini topmagunga qadar unga ishonmaslikni, yoxud uni tarqatmaslikni odat qiling. Bu orqali siz o'zingiz va atrofingizdagilarni axboriy xurujlardan asragan bo'lasiz. Axborot bugungi kundagi eng kuchli quroldir.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR:

1. Media va axborot savodxonligini shakllantirishning pedagogik jihatlari. O'quv-amaliy qo'llanma.-T.:Extremum-press, 2017
2. Mamatov.O Ochiq axborot tizimlarida axborot-psixologik xavfsizlik, psixologik xavfsizlikni ta'minlashning ijtimoiy psixologik imkoniyatlari. Namangan, 2008.
3. Abdullaev, S. S. (2021, July), socio-political factors of development of social relationships in students in the process of pedagogical education, in euro-asia conferences (pp. 168-170).
4. Askarovich, M. S., Uljaevna, U. O., & Inomjohnovna, O. N. (2020). Applying case study-method in teaching chemistry. Проблемы современной науки и образования, (3 (148)), 62-64.
5. Karimova, B. K., & Oripova, M. S. (2021). Formation of national pride based on hadiths in primary school children of houses of kindness. academia: An International Multidisciplinary Research Journal, 11(4), 652-665.